ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Опубликована: 30.09.2026
DOI: https://doi.org/10.64681/4cbpbw64

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti
MILLIY MADANIYAT JURNALI, 2 (3), 2026
www.jnculture.uz

O‘zbek maqom ijrochiligida qadimiy parda munosabatlari va zamonaviy ijro intonatsiyasining qiyosiy tahlili

(Comparative analysis of historical pitch relationships and modern performance intonation in Uzbek maqom performance)

Abror Zufarov

Department of Maqom Instrumental Performance
The Institute of Uzbek national musical art named after Yunus Rajabiy,
100001, Mustaqillik, 1.
Uzbekistan/Tashkent
E-mail: abrorz@mail.ru

Annotatsiya

Maqolada o‘zbek maqom ijrochiligida tarixiy parda tizimi va zamonaviy ijro amaliyoti o‘rtasidagi tafovutlar, maqom nazariyasi va ijrochilik tajribasining o‘zaro munosabati hamda bugungi maqom ta’limining dolzarb masalalari yoritilgan. Ustoz-shogird an’anasining ahamiyati, maqom ijrochisining nazariy va amaliy bilimlariga qo‘yiladigan talablar, tovushqator va parda munosabatlarini o‘rganish zarurati tahlil qilingan. Shuningdek, tarixiy manbalar, zamonaviy musiqiy texnologiyalar va ilmiy tadqiqotlar asosida maqom ijrochiligi hamda ta’limini takomillashtirish yo‘llari ko‘rib chiqilgan.

Inson har qanday faoliyatga kirishishdan avval, odatda, uning nazariy asoslariga murojaat qiladi. Ko‘p yillik amaliy tajriba davomida shakllangan nazariya esa keyingi faoliyat uchun muhim mezon bo‘lib xizmat qiladi. Nazariya va amaliyot bir-birini to‘ldirib, o‘zaro uyg‘un holda rivojlangandagina muayyan sohaning asl imkoniyatlari to‘liq namoyon bo‘ladi. Bugungi kunda o‘zbek maqom ijrochiligini o‘rganish va o‘rgatish jarayonida nazariya bilan amaliyot o‘rtasidagi munosabatga doir bir qator masalalar mavjud. Bu muammoni maqomning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan tovushqator va parda tizimi misolida ko‘rib chiqish mumkin.

Kalit so‘zlar: o‘zbek maqom san’ati, maqom ijrochiligi, tarixiy parda tizimi, tovushqator, nim parda, ijro an’analari, ustoz-shogird, maqom nazariyasi, maqom ta’limi, cholg‘ushunoslik.

Abstract

The article examines the differences between the historical modal system and contemporary performance practice in Uzbek maqom, the relationship between maqom theory and practical performance, and current challenges in maqom

education. It discusses the importance of the ustoz-shogird (master-apprentice) tradition, the theoretical and practical competencies required of maqom performers, and the need to study pitch structures and modal relationships. Particular attention is given to improving maqom performance and education through historical sources, modern music technologies, and scholarly research.

Before engaging in any activity, people generally turn to its theoretical foundations. A theory developed through many years of practical experience serves as an important guideline for subsequent work. Only when theory and practice complement each other and develop harmoniously can the true potential of a particular field be fully realized. Today, several issues concerning the relationship between theory and practice arise in the process of studying and teaching Uzbek maqom performance. This problem can be examined through the example of the scale and modal system, which constitute some of the fundamental structural components of maqom.

Keywords: Uzbek maqom art, maqom performance, historical modal system, pitch structure, microtonal intervals, performance traditions, master-apprentice tradition, maqom theory, maqom education, musical instrument studies.

Аннотация

В статье рассматриваются различия между исторической ладово-интонационной системой и современной исполнительской практикой узбекского макома, взаимосвязь теории макома и исполнительского опыта, а также актуальные проблемы современного музыкального образования в данной области. Анализируются значение традиции «устоз-шогирд» (наставник – ученик), требования к теоретической и практической подготовке исполнителей, необходимость изучения звукорядов и ладовых соотношений. Особое внимание уделяется возможностям совершенствования исполнительской практики и системы обучения макому на основе исторических источников, современных музыкальных технологий и научных исследований.

Прежде чем приступить к любой деятельности, человек, как правило, обращается к её теоретическим основам. Теория, сформировавшаяся на протяжении многолетнего практического опыта, служит важным ориентиром для дальнейшей деятельности. Лишь при взаимном дополнении и гармоничном развитии теории и практики в полной мере раскрываются подлинные возможности той или иной сферы. В настоящее время в процессе изучения и преподавания узбекского исполнительства макома существует ряд вопросов, связанных с соотношением теории и практики. Рассмотреть данную проблему можно на примере звукоряда и ладовой системы – одних из основных структурных компонентов макома.

Ключевые слова: узбекское макомное искусство, исполнение макома, историческая ладовая система, звукоряд, микроинтервалы, исполнительские традиции, традиция «устоз-шогирд», теория макома, обучение макому, инструментоведение.

KIRISH: Inson har qanday faoliyatga kirishishdan avval, odatda, uning nazariy asoslariga murojaat qiladi. Ko‘p yillik amaliy tajriba davomida shakllangan nazariya esa keyingi faoliyat uchun muhim mezon bo‘lib xizmat qiladi. Nazariya va amaliyot bir-birini to‘ldirib, o‘zaro uyg‘un holda rivojlangandagina muayyan sohaning asl imkoniyatlari to‘liq namoyon bo‘ladi. Atrofimizda sodir bo‘lgan voqea-hodisalar va yangicha dunyoqarashning shakllanishi ijodkorning ijodida o‘z aksini topib, milliy musiqa san’atining mazmun va shakl jihatidan boyishiga xizmat qildi [10, 48-b.].

Bugungi kunda o‘zbek maqom ijrochiligini o‘rganish va o‘rgatish jarayonida nazariya bilan amaliyot o‘rtasidagi munosabatga doir bir qator masalalar mavjud. Bu muammoni maqomning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan tovushqator va parda tizimi misolida ko‘rib chiqish mumkin.

Ma’lumki, maqom san’ati uzoq vaqt davomida ustoz-shogird an’anasi asosida, asosan, og‘zaki tarzda o‘zlashtirilib kelingan. Bunda musiqiy bilimlar faqat og‘zaki tushuntirish orqali emas, balki cholg‘u pardalarini ko‘rsatish, tovushlarni eshittirish va ularni amaliy ijroda namoyon etish orqali ham yetkazilgan. Shu ma’noda cholg‘u pardalari maqom tovush tizimi haqidagi bilimlarni saqlash va avloddan avlodga uzatishda muhim vosita vazifasini bajargan, natijada millatning buyuk qadriyatiga aylangan hamda qadrlangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining madaniyat va san’at, jumladan milliy maqom san’atini asrash, rivojlantirish va ilmiy asosda targ‘ib etishga oid qator qarorlari bunga yorqin misol bo‘la oladi [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI: Tarixiy musiqiy risolalarda O‘n ikki maqom tovush tizimining ud cholg‘usi pardalari bilan bog‘liq holda talqin etilgani, Shashmaqomning tovush va parda munosabatlarini anglashda esa tanbur muhim o‘rin tutgani haqida ma’lumotlar uchraydi. Bu holat Sharq musiqa nazariyasida nazariy qarashlar bilan cholg‘u ijrochiligi o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Bunda nazariy bilimlarni faqat yozma manbalardan emas, balki cholg‘uning o‘ziga xos imkoniyatlari va ijro tajribasi orqali ham o‘rganish zarur. Shashmaqomning keng xalq ommasi orasidagi ommaviyligi va amaliy musiqiy hayotdagi o‘rni masalasi bugungi kunda ham bahsli bo‘lib qolmoqda. Shu ma’noda 2017-yilda qabul qilingan “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori (PQ–3391) [2] alohida ahamiyatga ega.

O‘n ikki maqomga oid ayrim tarixiy risolalarda tovush tizimi, interval munosabatlari va cholg‘u pardalariga doir nazariy tushuntirishlar hamda chizmalar keltirilgan. Bu manbalar o‘sha davrlarda musiqa nazariyasiga katta e’tibor berilganidan dalolat beradi. Shashmaqomning shakllanishi va rivojlanishi jarayonida esa nazariy bilimlarning muayyan qismi ustozlarning amaliy tajribasi va og‘zaki ta’lim an’analari orqali saqlanib, davom ettirilgan.

Ustoz-shogird an’anasida shogirdga faqat kuy va ashulalarni ijro etish usullari o‘rgatilmagan. Ustoz o‘zining ko‘p yillik tajribasi, musiqiy tafakkuri, ijro mahorati va kasbiy qarashlarini ham shogirdiga singdirgan. Shu bilan birga, san’atkorning odobi, ustozga hurmat, kasbga mas’uliyat bilan yondashish va insoniy fazilatlarni rivojlantirish kabi qadriyatlar ham ushbu ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan. Natijada maqom ilmi alohida musiqiy bilimlar majmui bo‘lish bilan birga, o‘ziga xos ta’lim va tarbiya an’anasi sifatida ham yashab kelgan.

Shu jihatdan qaraganda, Shashmaqomga oid tarixiy manbalarda tovush tizimi va parda munosabatlariga doir ma’lumotlarning qay darajada yoritilganini alohida

o‘rganish lozim. Bunday ma’lumotlarning ayrim yozma manbalarda kam uchrashi ushbu bilimlar ilgari mavjud bo‘lmaganini anglatmaydi. Ularning muayyan qismi og‘zaki an’ana, cholg‘u ijrochiligi va ustozlarning amaliy tajribasida saqlangan bo‘lishi mumkin. Bu masalaga aniqlik kiritish uchun mavjud qo‘lyozmalarni, musiqiy risolalarni, tarixiy ijro yozuvlarini va ustozlardan yetib kelgan ma’lumotlarni o‘zaro qiyoslab o‘rganish zarur. Yunus Rajabiy tomonidan amalga oshirilgan notalashtirish ishlari va ko‘p jildli “O‘zbek xalq musiqasi” hamda “Shashmaqom” nashrlari maqom merosini saqlash va keyingi avlodlarga yetkazishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etdi [3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI: Bugungi kunda bizgacha yetib kelgan maqom merosining muhim qismi o‘tgan asrda faoliyat yuritgan olimlar, ustoz san’atkorlar va fidoyi tadqiqotchilarning mehnati bilan bog‘liq. Ular maqom namunalarini yozib olish, nota matnlarini yaratish, ijro an’analarini o‘rganish va ushbu merosni keyingi avlodlarga yetkazish yo‘lida katta ishlarni amalga oshirdilar.

Biroq bu merosni qabul qilib olishning o‘zi yetarli emas. Uni ilmiy jihatdan chuqur o‘rganish, mavjud nazariy qarashlarni amaliy ijro bilan qiyoslash va aniqlangan bilimlarni kelajak avlodlarga tushunarli shaklda yetkazish ham bizning vazifamizdir. Ayniqsa, maqom tovush tizimi, parda munosabatlari va ijro jarayonida namoyon bo‘ladigan nozik intonatsion xususiyatlarni o‘rganishda nazariya bilan amaliyotning o‘zaro aloqasini qayta ko‘rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shashmaqomning musiqiy va tarixiy jihatlariga qaratilgan tadqiqotlarda uning turli siyosiy tuzumlar davridagi ijtimoiy maqomi, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanish mexanizmlari hamda xalq musiqiy madaniyati bilan o‘zaro munosabatlari masalalari nisbatan kam o‘rganilgan [4]. Shu o‘rinda bir savol tug‘iladi: biz bugun ajdodlardan meros bo‘lib qolgan maqom bilimlarini qanchalik chuqur o‘rganyapmiz va kelajak avlodga qanday ilmiy-amaliy meros qoldiryapmiz? Bu savol, ayniqsa, tarixiy parda tizimini o‘rganish, uning zamonaviy ijro

amaliyotidagi namoyon bo‘lishini aniqlash va maqomning o‘ziga xos intonatsion xususiyatlarini saqlash masalalarida alohida ahamiyatga ega.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, o‘zbek maqom ijrochiligini rivojlantirish va uning tarixiy xususiyatlarini kelajak avlodlarga to‘laqonli yetkazish uchun nazariya, ta’lim va amaliyot o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlash zarur. Maqom san’ati asrlar davomida ustoz-shogird an’anasi, jonli ijro tajribasi va musiqiy tafakkur orqali shakllanib kelgan. Shu bois uning mohiyatini faqat nota yozuvi yoki nazariy qoidalar bilan cheklab bo‘lmaydi. Ayni paytda, tarixiy ijro an’analarini chuqur anglash va asrash uchun amaliy tajribaning o‘zi ham yetarli emas. Ijro jarayonida qo‘llaniladigan parda tizimi, tovushqatorlar, usul, nola va qochirimlar, shuningdek, turli hududiy ijro maktablarining o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy jihatdan o‘rganish muhimdir.

Bugungi maqom ijrochiligida uchrayotgan ayrim muammolar, avvalo, tarixiy musiqiy bilimlarning yetarli darajada tizimlashtirilmagani, nazariy bilimlar bilan amaliy ko‘nikmalar o‘rtasidagi uzilishlar va ta’lim jarayonida maqomning o‘ziga xos qonuniyatlariga yetarlicha e’tibor berilmayotgani bilan bog‘liq. Xususan, tovushqator va parda munosabatlarini anglash, tarixiy ijro uslublarini farqlash hamda nola va qochirimlarni o‘rinli qo‘llash masalalari alohida tadqiqotni talab etadi. Bunda ijodiy erkinlikni cheklash emas, balki uning an’anaviy musiqiy mezonlar va puxta bilimlarga asoslanishini ta’minlash asosiy vazifa bo‘lishi lozim.

Maqom ta’limini takomillashtirishda ustoz-shogird an’anasini zamonaviy ilmiy yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish alohida ahamiyatga ega. Talaba nafaqat ustoz ijrosini tinglash va takrorlash, balki o‘rganayotgan asarining tuzilishi, parda xususiyatlari, usul va uslubini mustaqil anglay olish darajasiga yetishi kerak. Buning uchun maqom nazariyasi, tarixi, notalashtirish, cholg‘ushunoslik, g‘azaliyot va boshqa tegishli yo‘nalishlarni o‘zaro bog‘liq holda o‘qitish, zamonaviy

texnologiyalar va interaktiv o‘quv vositalaridan maqsadli foydalanish zarur. Shuningdek, maqom merosini o‘rganishda tarixiy qo‘lyozmalar, nota manbalari, eski va zamonaviy audioyozuvlar, ustoz san’atkorlarning ijro tajribasi qiyosiy tahlil qilinishi lozim. Shu bilan birga, bezaklarni ijro qilish jarayonida talabalar nafaqat texnik mahoratni, balki musiqiy did va estetik sezgirlikni ham rivojlantiradilar [8].

XULOSA: Bunday yondashuv tarixiy ijro xususiyatlarini aniqlash, turli talqinlar o‘rtasidagi farqlarni tushunish va mavjud nazariy qarashlarni amaliy dalillar asosida tekshirish imkonini beradi. Cholg‘ularning tuzilishi va sozlanishi, parda tizimining o‘ziga xosligi hamda tovush balandliklarini ifodalash imkoniyatlarini o‘rganish ham ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Maqom nazariyasi, tarixiy tovushqatorlar, nota yozuvi, cholg‘ularni rekonstruksiya qilish va maqom ta’limini takomillashtirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar kelgusida kengroq ilmiy va amaliy natijalarga erishish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Umuman olganda, o‘zbek maqom ijrochiligining kelajagi uning tarixiy merosiga sodiqlik, zamonaviy ilmiy tafakkur va puxta ijrochilik mahoratining o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liq. UNESCO ham Shashmaqomni Markaziy Osiyo shahar madaniyatida o‘n asrdan ortiq rivojlangan klassik musiqa an’anasi sifatida e’tirof etadi [7]. Shuningdek, hamkorlikda turli loyihalarni amalga oshirib kelinmoqda [9].

Maqom an’analarini asrash deganda ularni faqat mavjud holida takrorlash emas, balki tarixiy asoslarini chuqur o‘rganish, ichki qonuniyatlarini anglash va ishonchli ilmiy-amaliy yondashuvlar orqali kelajak avlodlarga yetkazish tushunilishi kerak. Shu ma’noda, maqom ijrochiligi, nazariyasi va ta’limini bir butun tizim sifatida o‘rganish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Qarorlar konsepsiyasi // Internet sahifasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: PQ–3391-son qaror. – Toshkent, 2017-yil 17-noyabr.

3. Rajabiy Yu. Shashmaqom: I–VI tomlar. – Toshkent, 1975.
4. Zufarov A. M. Maqomlar, pardalar: «Ushshoq» misolida // Art and Design: Social Science. E-ISSN 2181-2918; P-ISSN 2181-290X.
5. Zufarov A. M. O‘zbek milliy musiqasi rivojida Sharq allomalarining qo‘shgan hissasi // Oriental Art and Culture. – 2023. – № 5. – B. 244–250.
6. Rajabiy Yu. Musiqa merosimizga bir nazar. – Toshkent, 1978. – 164 b.
7. UNESCO. Intangible Cultural Heritage dataset. URL: https://data.unesco.org/explore/dataset/ich001/.
8. Abdurashidova D. A. Dutorda ijro qilish texnikalari orqali aruz metroritmik qonunlarini o‘rganish haqida // Musiqa ta’limi va san’atining bugungi globallashuv sharoitda milliy-ijtimoiy ahamiyati: muammo va yechimlar (ASR). – Tashkent: Academic Scientific Research Group, 2024.
9. Makharov N. The Uzbek national school of composition: past and present // Journal of National Culture (JNC). – 2025. – Vol. 1, № 2. – P. 29–34.
10. Махаров Н. Т. Становление узбекской национальной композиторской школы // Проблемы современной науки и образования. – Москва, 2017. – Вып. 35. – С. 48–51.

References

1. Mirziyoyev, Sh. “Qarorlar konsepsiyasi [Concept of Decisions].” Internet page. (in Uzbek)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida [On Measures for the Further Development of Uzbek National Maqom Art].” Resolution PQ–3391. Tashkent, November 17, 2017. (in Uzbek)
3. Rajabiy, Yu. *Shashmaqom: I–VI tomlar [Shashmaqom: Vols. I–VI]*. Tashkent, 1975. (in Uzbek)
4. Zufarov, A. M. “Maqomlar, pardalar: ‘Ushshoq’ misolida [Maqoms and Modes: The Example of ‘Ushshoq’].” *Art and Design: Social Science*. E-ISSN 2181-2918; P-ISSN 2181-290X. (in Uzbek)
5. Zufarov, A. M. “O‘zbek milliy musiqasi rivojida Sharq allomalarining qo‘shgan hissasi [The Contribution of Eastern Scholars to the Development of Uzbek National Music].” *Oriental Art and Culture* no. 5 (2023): 244–250. (in Uzbek)
6. Rajabiy, Yu. *Musiqa merosimizga bir nazar [A Look at Our Musical Heritage]*. Tashkent, 1978. (in Uzbek)
7. UNESCO. “Intangible Cultural Heritage Dataset.” https://data.unesco.org/explore/dataset/ich001/.
8. Abdurashidova, D. A. “Dutorda ijro qilish texnikalari orqali aruz metroritmik qonunlarini o‘rganish haqida [On Studying Aruz Metrorhythmic Principles through Dutar Performance Techniques].” In *Musiqa ta’limi va san’atining bugungi globallashuv sharoitda milliy-ijtimoiy ahamiyati: muammo va yechimlar [The National and Social Significance of Music Education and Art in Today’s Globalization: Problems and Solutions]*. Tashkent: Academic Scientific Research Group, 2024. (in Uzbek)
9. Makharov, N. “The Uzbek National School of Composition: Past and Present.” *Journal of National Culture (JNC)* 1, no. 2 (2025): 29–34.
10. Makharov, N. T. “Stanovleniye uzbekskoy natsional’noy kompozitorskoy shkoly [Formation of the Uzbek National School of Composition].” *Problemy sovremennoy nauki i obrazovaniya* no. 35 (2017): 48–51. (in Russian)